



STATISTIK KO'RSATKICHLARNING MOHIYATI, TASNIFLARI VA TURLARI

Raximjonov Muhammadjon

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Nasriddinov Farid

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Zaripov Azamat

Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqola materiyallari bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy hodisa va jarayonlarni vaqt bo'yicha o'zgarishini o'rganish juda muhim. Statistik ko'rsatkichlarning vazifasi o'zgarish sur'atlarini yillar bo'yicha hisoblash emas, balki uzoq davrlar uchun ham hodisaning rivojlanish intensivligini baholashdir. Sitatistik aniq malumotlarga tayangan holda tayyorlangan*

***Kalit so'zlar:** Statistik ko'rsatkich, iqtisodiy kategoriya, semantik, funktsional, induksiya, deduktsiya, hodisa va predmetlarni o'rganish.*

Kirish

Statistikada ko'rsatkichlar o'rganilayotgan hodisalarning miqdoriy va sifat tomonlarini ifoda etadi. Ular o'rganilayotgan jarayonlarning sonini, hajmini (aktsiyalar soni, aktsiyalar qiymati, tovar oboroti), darajasini, nisbatini va shu kabilarni tavsiflaydi. Ma'lumki, amaliyotda iqtisodiy hayotning turli jabhalariga tegishli ko'rsatkichlar hisoblanadi. Statistik ko'rsatkichlar tegishlilik bo'yicha bilish, boshqarish, ayrimlari rag'batlantirish funktsiyalarini bajaradi. Statistik ko'rsatkichlarning bilish funktsiyasini mohiyati shundan iboratki, ular o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni holati va rivojlanishini, yo'nalishi va intensivligini tavsiflaydi. Boshqarish funktsiyasida ular (ko'rsatkichlar) boshqarishning muhim elementlariga aylanadilar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu funktsiyaning roli yanada ortadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Statistik ko'rsatkichni olimlar har xil tushunishadi. N.Soatov statistik ko'rsatkichni o'rganilayotgan hodisa va jarayonni me'yoridir 1 deb hisoblaydi, Merestini fikricha statistik ko'rsatkich hodisa tasvirini adekvat ifodalovchi miqdorlardir. Oxirgi tarifga juda ko'pchilik qo'shiladi.

Tahlil va natijalar:

Statistik ko'rsatkichlar iqtisodiy kategoriyalarni aks ettirib, o'zaro bog'langan miqdor va sifat tomonlarga egadir. Statistik ko'rsatkichlar o'zaro: semantik, stoxastik, funktsional bog'liqdir. Statistik ko'rsatkichlarni semantik o'zaro bog'liqligi deganda ularni o'zaro ma'naviy bog'liqligi tushuniladi. Stoxastik-bu noto'liq bog'liqlik, ya'ni ko'rsatkichning o'zgarishi bir necha ko'rsatkichlarning o'zgarishiga bog'liq, funktsional-omil ko'rsatkichning o'zgarishi bilan natijaviy ko'rsatkich to'liq o'zgaradi.

Statistik ko'rsatkichlar turli-tuman funktsiyalarni bajarishi ularning turlarini baholaydi. Bizning fikrimizcha ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin. Agarda ko'rsatkichlar mamlakatga baho beradigan bo'lsa, (masalan, yalpi ichki mahsulot) uni makroiqtisodiy ko'rsatkich deymiz. "Marjon" fermer xo'jaliga yetishtirilgan mahsulot hajmi bu mikroiqtisodiy ko'rsatkich hisoblanadi. Fermer xo'jaligida ishlayotganlarni ish staji o'rgansak. Bir kishini ish staji individual, ayollar va erkaklar bo'yicha ish staji guruhli, barcha xodimlarning o'rtacha ish staji umumiy ko'rsatkich hisoblanadi. Aniqlash usuliga qarab statistik ko'rsatkichlar yig'indi vahosilaviy ko'rsatkichlarga bo'linadi. Yig'indi ko'rsatkichlar hodisa birliklarini jamlash orqali hisoblanadi, hosilaviy ko'rsatkichlar esa mutloq, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlarga bo'linadi. Statistik ko'rsatkichlarni tasniflash murakkab masaladir. Unga turli tomondan yondashish mumkin. Bu yerda statistik ko'rsatkichlarning eng muhim tasniflari ustida so'z boradi. Avvalambor tub xarakteri, ichki hissiyoti, umuman hodisalarni bilishda tutgan o'rni va roliga qarab statistik ko'rsatkichlarni ikki katta turkumga ajratish mumkin.



1-rasm. 2023-yilda Bankni avtomatlashtirishda korporativ elektron jadval risklari modeli.

Birinchi turkum ommaviy hodisa va jarayonlarning mohiyati va beligilarini ta'riflovchi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi,

Ikkinchi turkumdagi ko'rsatkichlar bir-biri bilan bog'lanishiga qarab yakkama-yakka ko'rsatkichlar va ko'rsatkichlar tizimidan tashkil topadi. Ularni tuzish va hisoblash tartibiga qarab tarkibiy unsurlarini (qismlar) jamg'arish natijasida, hodisalarni agregatlashtirish yo'li bilan ularni modellashtirish asosida olinadigan ko'rsatkichlarga bo'linadi. Masalan modellashtirishda avtomatlashtirish o'rni. (1-rasm)

Xulosa

Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida asosiy sektorining holati, o'zgarishi va samaradorligi, shuningdek, tegishli ma'lumotlarni olish, qayta ishlash, saqlash va tahlil qilishga qaratilgan ilmiy va amaliy faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlar tizimi juda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Firma va kompaniyalar faoliyati



dinamikasini o'rganishdan asosiy maqsad vaqt bo'yicha rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash va o'lchashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. Entsiklopediya statisticheskix publikatsiy (Simchera V.M idr). M.: "Finansi i statistika", 2001.
2. Makroiqtisodiy statistika. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2000.
3. Shodiev X., Xamraev M. Moliya statistikasi. T.: «Abu Ali ibn Sino», 2002.
4. Rustamovich, U. S. (2017). Features of innovative water management in the modernization of economy. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR), 6(1), 45-53.
5. Умаров, С. (2017). Основные направления инновационного развития водного хозяйства и его поддержка. Экономика и инновационные технологии, (1), 43-50.
6. Umarov, S. R. (1993). Some boundary value problems for elliptic equations with a boundary operator of fractional order. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 333, No. 6, pp. 708-710). Russian Academy of Sciences.
7. Umarov, S. R. (1992). On the well-posedness of boundary value problems for pseudodifferential equations with analytic symbols. In Doklady Akademii Nauk (Vol. 322, No. 6, pp. 1036-1039). Russian Academy of Sciences.
8. Kochkarova, R. R., & Turgunov, E. (2023). IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING CHEMISTRY LESSONS AT SCHOOL WITH THE HELP OF DIFFERENT GAMES. American Journal of Applied Science and Technology, 3(10), 15-19.
9. M.Z. Kuvatova, Sh.A. Turdiyeva, R.R. Kochkarova. (2023). USE OF VENN DIAGRAM AND NETWORK METHOD IN TEACHING THE TOPIC OF "IMPORTANT CLASSES OF INORGANIC COMPOUNDS" TEACHING METHODOLOGY IMPROVEMENT. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(10). Retrieved from <https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/223>
10. Rasulovna, K. R. (2023). Complex Nickel (II) Compounds Based on Acylhydrazones of Aroyltrifluoroacetylmethanes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 3-5.
11. Bafoevich, U. B., Rasulovna, K. R. N., & Ziyodulloevna, K. S. (2021). REACTION OF 1, 1, 1-TRIFLUOROMETHYL-4-PHENYLBUTANEDIONE-2, 4 WITH BENZOIC ACID HYDRAZIDE. INFORMATION TECHNOLOGY IN INDUSTRY, 9(3), 939-944.
12. Кароматов, И. Д., & Гулямов, Х. Ж. (2017). Медицинские вопросы, освещенные в Библии. Биология и интегративная медицина, (4), 55-75.
13. Gulyamov, X. (2023). INTER-ETHNICITY IN THE FORMATION OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN HARMONY AND RELIGIOUS TOLERANCE. Interpretation and Researches, 1(12). извлечено от <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/1314>
14. Turayeva, G. (2023). Don ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlashning iste'mol savatidagi ahamiyati. Iqtisodiyot va ta'lim, 24(2), 440-444.
15. Turayeva, G. (2023). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DON ISHLAB CHIQUVCHI XALQARO TRENDLAR. Молодые ученые, 1(13), 140-143.